



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 6 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI TDIU TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS



| № | MUNDARIJA | Page |
|-----|--|------|
| 1. | SUG'URTA XIZMATLARIGA BO'LGAN ISTE'MOL TALABINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i> | 4 |
| 2. | O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA RAQAMLASHTIRISHNING TA'SIR YO'NALISHLARI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i> | 9 |
| 3. | QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>PhD. dosent Kalenov K.T.</i> | 14 |
| 4. | MARKAZIY OSIYODA TAKAFULNING VAKALAH MODELINI TADBIQ QILSIH IMKONIYATI <i>Fayzullayev Diyorbek Zafar o'g'li</i> | 17 |
| 5. | INOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RASSIYA FEDERATSIYASI BANK SUG'URTASINING XOZIRGI XOLATINING TAXLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i> | 20 |
| 6. | O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i> | 23 |
| 7. | O'ZBEKISTONDA KARBON BOZORI VA KARBON SUG'URTASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i> | 25 |
| 8. | УПРАВЛЕНИЕ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ОПТИМИЗАЦИИ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Роишева Диёра Равшановна</i> | 28 |
| 9. | ЦИФРОВОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФИНТЕХ КАК ДРАЙВЕРЫ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННЫХ СДЕЛОК В РЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Рахимбоева Сугдиёна Рахимбоевна</i> | 33 |
| 10. | TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI CHAKANA XIZMATLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI <i>Alimov Umid O'ktambayevich</i> | 37 |
| 11. | TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI <i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i> | 42 |
| 12. | TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Mamaraimova Rushana Rashidovna</i> | 46 |
| 13. | O'ZBEKISTONDA BANK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: HOZIRGI MUAMMOLAR VA YUZAGA KELAYOTGAN IMKONIYATLAR <i>dotsent, Sung Tae Kyun</i> | 50 |
| 14. | TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI <i>Yuldashev Fozil Turapovich</i> | 57 |
| 15. | DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING INVESTISION MUHITGA TA'SIRI <i>Imomov Xamdilla Xamdamovich</i> | 61 |
| 16. | O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TAHLILI <i>Shirinov Sabir Erkinovich, Mirasimov Ershod Sunatullayevich, Kabirov Abdulla Maxmutovich</i> | 63 |

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TAHLILI

Shirinov Sabir Erkinovich

Soliq va soliqa tortish kafedrasini professori, iqtisod fanlari doktori, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
shirinovsibir@gmail.com

Mirasimov Ershod Sunatullayevich

Soliq va soliqa tortish kafedrasini katta o'qituvchisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ershodmirasimov@gmail.com

Kabirov Abdulla Maxmutovich

Soliq va soliqa tortish kafedrasini katta o'qituvchisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
kabirov.abdulla62@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada egri soliq tushunchasining iqtisodiy mohiyati yoritilgan, davlat byudjetining qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i hamda bojxona boji tushumlarining mutloq miqdorlari, nisbiy miqdorlari, o'sish sur'atlari tahlil qilingan. Tahlil jarayonida davlat byudjetining solikli daromadlari hamda qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona boji tushumlarining 2020-2024 yillar davomida o'zgarish tendensiyalari aniqlangan. Tahlil natijalariga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona boji tushumlarining oshirish yuzasidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona boji, egri soliq, davlat byudjeti, o'sish sur'ati, mutloq miqdor.

Abstract: The article reveals the economic essence of the concept of "indirect taxes" and analyzes the absolute values, relative values, and growth rates of revenues to the state budget from value-added tax, excise taxes, and customs duties. The analysis revealed trends in changes in state budget tax revenues, as well as revenues from value-added tax, excise taxes, and customs duties for 2020–2024. Based on the analysis results, proposals and recommendations were developed to increase revenues from value added tax, excise taxes and customs duties.

Keywords: excise tax, value added tax, customs duty, indirect tax, state budget, growth rate, absolute amount.

Абстрактный: В статье раскрывается экономическая сущность понятия «косвенные налоги», анализируются абсолютные величины, относительные величины и темпы роста поступлений в государственный бюджет налога на добавленную стоимость, акцизов и таможенных пошлин. В ходе анализа выявлены тенденции изменения налоговых доходов государственного бюджета, а также поступлений налога на добавленную стоимость, акцизов и таможенных пошлин за 2020–2024 годы. По результатам анализа разработаны предложения и рекомендации по увеличению поступлений налога на добавленную стоимость, акцизов и таможенных пошлин.

Ключевые слова: акцизный налог, налог на добавленную стоимость, таможенная пошлина, косвенный налог, государственный бюджет, темп роста, абсолютная сумма.

Kirish (Введение/Introduction).

Har qanday davlat o'zining soliq tizimida bilvosita va bevosita soliqqa tortish shakllaridan foydalanadi. 16-asrdan boshlab jahon soliq amaliyotida soliqlarni to'g'ri va bilvositaga turlarga bo'lish qo'llanila boshlandi. 17-asr oxirida soliqlarning yuklanish mezonini ushbu tasnif uchun asos bo'ldi [1].

Soliqqa tortish jarayonida qaysi soliq turiga ko'proq e'tibor berilishi soliq tizimining mohiyatini belgilaydi. Soliqa tortishda egri soliqqa tortishning to'g'ri soliqqa tortishga ko'ra ko'proq qo'llanilishi yoki davlat byudjetida egri soliq tushumlarining to'g'ri soliq tushumlariga nisbatan oshishi tamlakat soliq siyosatining fiskal xususiyatidan dalolat beradi. Soliqa tortishning qaysi shakli ustun bo'lishining ham afzalliklari, ham kamchiliklari bo'lishi mumkin.

Agar fiskal maqsadlar ustuvor bo'lsa, bilvosita soliqlar har doim to'g'ri soliqlarga qaraganda samaraliroq bo'ladi. Mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy holatdan kelib chiqib, bevosita va bilvosita soliqlarning optimal nisbatini tanlash zarur bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish masalalari ko'p jihatdan konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini samarali menejmentiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbasi ekan, davlat byudjetining barqarorligini ta'minlash masalasi ko'p jihatdan soliq tizimining samarali ishlashiga bog'liq hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmonida soliq tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida biznes uchun qo'shilgan qiymat va

foyda soliq stavkalari uch yil davomida oshirilmasligini kafolatlash, soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektor — nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlash zarurligini belgilab berilgan[2].

Metodologiya (Методология/Methodology). Davlat byudjetining to'g'ri soliq tushumlarini tahlil qilishda quyidagi metodologiyadan foydalanildi: axborotlarni yig'ish va dastlabki qayta ishlov berish; ma'lumotlarni gurhlash va ularga ishlov berish; statistik materiallarni umumlashtirish va tahlil natijalarini qayta ishlash; xulosa va tavsiylarni ishlab chiqish.

Davlat byudjetining to'g'ri soliq tushumlarini ifodalovchi mutloq miqdorlar, ular o'rganilayotgan ob'ektning sonini, miqdorini qiymatda ifodalaydi, nisbiy miqdorlar esa statistik jamlamani tashkil qiluvchi birliklarning nisbiy miqdorini ifodalaydi. Ularni hisoblashda ikki ko'rsatkichning nisbati inobatga olinadi va quyidagi kattaliklarda o'lchanadi: foizda; promilliyada; prodetsimilliyada.

Davlat byudjetining to'g'ri soliq tushumlarini ifodalovchi dinamik nisbiy miqdorlar soliq statistikasida o'sish darajasi ham deb yuritiladi. O'z navbatida dinamik nisbiy miqdorlarni hisoblashning bazisli va zanjirsimon usullar mavjud. Bazis davrga nisbatan keyingi davrlar darajasi qancha miqdorda o'zgariganligi bazisli usul yordamida hisoblanadi.

Zanjirsimon usul yordamida har bir keyingi davr o'zidan oldingi davr darajasiga nisbatan qancha o'zgarib borayotgani aniqlanadi. Dinamik ko'rsatkichlar koeffitsientlarda va foizlarda ifodalanadi.

Davlat byudjetining to'g'ri soliq tushumlarini ifodalovchi o'rtacha kattaliklar umumlashtiruvchi statistik ko'rsatkich hisoblanib, ommaviy hisoblangan ijtimoiy hodisalarga umumlashtiruvchi xarakteristika beradi. Ular variatsiyalanuvchi belgining individual ahamiyati asosida hisoblanadi. Boshqa so'zlar bilan izzohlaganda o'rtacha kattaliklar jamlama tarkibiga kiruvchi barcha o'rganilayotgan elementlarning umumiy tavsifini o'zida namoyon qiladi. O'rtacha kattaliklar yordamida jamlama elementlarining belgilarini o'zgarishiga sabab bo'luvchi barcha omillarning ta'sir miqdori o'rtachalashtiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature Review).

19-asrning oxirida taniqli rus iqtisodchisi I.I. Yanzhul soliqlarni yuklashning iqtisodiy mohiyatini soliq to'lovchilarning soliq yukini ular bilan turli iqtisodiy munosabatlarga kirishadigan boshqa shaxslarga o'tkazish qobiliyati sifatida juda aniq ifodalagan [3]. Bilvosita soliqlar, garchi soliq to'lovchilar uchun unchalik og'ir bo'lmasa-da, regressiv xususiyatga ega (iste'molchining to'lov qobiliyatiga teskari mutanosibligi tufayli) va eng og'ir yukni aholining eng kam taminlangan qatlamiga yuklaydi [4]. To'g'ri yoki bilvosita undiriladigan soliqlarning joriy tasnifini hisobga olgan holda, soliq yukini yuklashning hal qiluvchi ahamiyatini huquqiy tushuncha sifatida talqin qilinishi esa egri soliqlarni undirish mexanizmini mohiyatini anglatadi. Shunday qilib, o'tkazish deganda soliqning yuridik sub'ekti (soliq to'lovchi) va haqiqiy soliq to'lovchi (soliq to'lovchi) o'rtasida soliqni qayta taqsimlash tushunilishi mumkin [5]. O'tgan asrning boshlarida S.B. Vitte ta'kidlaganidek, "...faqat to'g'ri va bilvosita soliqlarni birlashtirgan holda, soliq to'lovchilarga og'irlik qilmasdan, aholi farovonligiga putur etkazmasdan va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qilmasdan, davlatni uning ehtiyojlarini qondirish uchun etarli mablag' bilan ta'minlashga qodir bo'lgan soliqlar tizimini yaratish mumkin [6]. Tovarlar, ishlar va xizmatlar narxining bir qismi sifatida bilvosita soliqlarni undirish aholiga ko'rinmaydi va davlatning moliyaviy faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati institutlarini rivojlantirishga ko'mak bermaydi [7]. Ko'pgina mamlakatlarda QQS bo'yicha imtiyozlar birinchi navbatda iste'moli eng kambag'al uy xo'jaliklari byudjetlarining muhim qismini tashkil etadigan tovarlar va xizmatlarni sotish uchun beriladi [8]. Bilvosita soliqlar tortish ayniqsa, raqobat strategiyasini amalga oshiradigan tadbirkorlik sub'yektlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi [9]. Tariflarning keskin oshishi sifatning pasayishiga olib kelishi mumkin, stavkalarining pasayishi esa har doim ham narxning pasayishiga olib kelmaydi" [10]. Ko'pgina olimlar aksiz solig'ini qo'shilgan qiymat solig'ining bir shakli sifatida ko'rishadi. Shu bilan birga, aksiz solig'i va QQS o'rtasida sezilarli farq borligi ta'kidlangan: "QQS nomutanosib ravishda keng turdagi tovarlar va xizmatlardan undiriladi, aksiz solig'i esa tovarlarning muayyan assortimentidan undiriladi" [11]. Aksiz solig'i bilvosita soliqlar tortishning alohida shakli bo'lib, u to'g'ri soliqlar tortishdan farqli o'laroq, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ichki bozorda ham, tashqi bozorda sotishdan ham undiriladi: tovarlarni bojxona hududiga olib kirishda, aksiz solig'ini "ichki" va "tashqi" ga bo'lish imkonini beradi [12].

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты/ Analysis and results).

2024 yilda davlat byudjetining jami daromadi 335,23 trln. so'mni tashkil qilgan yoki 2023 yilga nisbatan +103,51 trln. so'mga, 2022 yilga nisbatan +133,36 trln. so'mga, 2021 yilga nisbatan +170,55 trln. so'mga, 2020 yilga nisbatan +202,29 trln. so'mga oshgan.

Davlat byudjetining jami soliqli daromadlari miqdori 2024 yilda 264,53 trln. so'mga teng bo'lgan yoki ushbu ko'rsatkich 2023 yilga qaraganda +80,02 trln. so'mga ko'p demakdir.

Egri soliq tushumlari 2020 yilda 46,43 trln. so'mni, 2021 yilda 56,29 trln. so'mni, 2022 yilda 71,39 trln. so'mni, 2023 yilda 83,33 trln. so'mni, 2024 yilda 106,53 trln. so'mni tashkil qilgan.

1-jadval. 2020-2024 yillarda yig'ilgan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining egri soliq tushumlari mutloq miqdorlari, trln. so'mda¹

| Yillar | BJD | BJSD | EGS | QQS | AKS | BBJ |
|--------|--------|--------|--------|-------|-------|-------|
| 2020 | 132,94 | 112,89 | 46,43 | 31,18 | 11,70 | 3,55 |
| 2021 | 164,68 | 138,26 | 56,29 | 38,44 | 13,09 | 4,76 |
| 2022 | 201,86 | 159,75 | 71,39 | 52,19 | 13,46 | 5,75 |
| 2023 | 231,72 | 184,51 | 83,33 | 57,89 | 15,83 | 9,61 |
| 2024 | 335,23 | 264,53 | 106,53 | 71,55 | 22,79 | 12,20 |

¹ <https://openbudget.uz/>

BJD – davlat byudjetining jami daromadlari; BJSD - davlat byudjetining jami soliqli daromadlari; EGS - egri soliq tushumlari; QQS -qo'shilgan qiymat soliq tushumi; AKS- aksiz soliq tushumi; BBJ -bojxona boji tushumi.


1-jadval ma'lumotlari 2020-2024 yillar davomida qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarining mutloq miqdorlari barqaror o'sib borganligini ko'rsatmoqda. Qo'shilgan qiymat solig'i tushumining mutloq miqdori 2024 yilda 71,55 trln. so'mni, 2023 yilda 57,89 trln. so'mni, 2022 yilda 52,19 trln. so'mni, 2021 yilda 38,44 trln. so'mni, 2020 yilda 31,18 trln. so'mni tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda qo'shilgan qiymat solig'i tushumining mutloq miqdori 2024 yilda 13,66 trln. so'mga, 2023 yilda 5,70 trln. so'mga, 2022 yilda 13,75 trln. so'mga, 2021 yilda 7,26 trln. so'mga ko'paygan.

2-jadval 2020-2024 yillarda yig'ilgan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining egri soliq tushumlari o'sish sur'atlari, %da

| Soliq turlari | 2020 yil | 2021 yil | 2022 yil | 2023 yil | 2024 yil |
|---------------|----------|----------|----------|----------|----------|
| BJD | 100 | 123,88 | 122,58 | 114,79 | 144,67 |
| BJSD | 100 | 122,47 | 115,55 | 115,50 | 143,37 |
| EGS | 100 | 121,24 | 126,82 | 116,72 | 127,85 |
| QQS | 100 | 123,29 | 135,77 | 110,91 | 123,60 |
| AKS | 100 | 111,88 | 102,81 | 117,68 | 143,92 |
| BBJ | 100 | 134,09 | 120,58 | 167,19 | 126,97 |

Tahlil natijalari ko'rsatmoqdaki, 2020-2024 yillar davomida aksiz solig'i tushumlarining mutloq miqdorlari ham barqaror o'sib borgan. Aksiz solig'i tushumining mutloq miqdori 2024 yilda 22,79 trln. so'mni, 2023 yilda 15,83 trln. so'mni, 2022 yilda 13,46 trln. so'mni, 2021 yilda 13,09 trln. so'mni, 2020 yilda 11,70 trln. so'mni tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda aksiz solig'i tushumining mutloq miqdori 2024 yilda 6,96 trln. so'mga, 2023 yilda 2,38 trln. so'mga, 2022 yilda 0,37 trln. so'mga, 2021 yilda 1,39 trln. so'mga oshgan.


Boxona boji tushumining mutloq miqdori 2024 yilda 12,20 trln. so'mni, 2023 yilda 9,61 trln. so'mni, 2022 yilda 5,75 trln. so'mni, 2021 yilda 4,76 trln. so'mni, 2020 yilda 3,55 trln. so'mni tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda bojxona boji tushumining mutloq miqdori 2024 yilda 2,59 trln. so'mga, 2023 yilda 3,86 trln. so'mga, 2022 yilda 0,98 trln. so'mga, 2021 yilda 1,21 trln. so'mga oshgan.



1-rasm. 2020-2024 yillarda yig'ilgan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining egri soliq tushumlari o'sish sur'atlarining grafiklari²

Davlat byudjetining jami daromadlari 2024-2020 yillarda barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lgan. O'tgan yilga nisbatan foizda hisoblangan davlat byudjetining jami daromadlarining o'sish sur'atlari 2024 yilda 144,67 %ni, 2023 yilda 114,79 %ni, 2022 yilda 122,58 %ni, 2021 yilda 123,88 %ni tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda davlat byudjetining jami daromadlari o'sish sur'atlari 2024 yilda 29,88%ga oshgan, 2023 yilda -7,79 %ga, 2022 yilda -1,30 %ga kamaygan, 2021 yilda 23,88 %ga ko'paygan. 2-jadval.

² Muallif tomonidan yaratilgan



2-rasm. 2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga yig'ilgan qo'shilgan qiymat solig'i tushumi, aksiz solig'i tushumi hamda bojxona boji tushumlari o'sish sur'atlarining grafikasi³

Davlat byudjetining jami soliqli daromadlarining o'sish sur'atlari 2024 yilda 143,37 %ni, 2023 yilda 115,50 %ni, 2022 yilda 115,55 %ni, 2021 yilda 122,47 %ni tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda davlat byudjetining jami soliqli daromatlari o'sish sur'atlari 2024 yilda 27,87 %ga oshgan, 2023 yilda -0,05 %ga, 2022 yilda -6,92 %ga kamaygan, 2021 yilda 22,47 %ga ko'paygan.


Egri soliq tushumlarining o'sish sur'atlari 2024 yilda 127,85 %ni, 2023 yilda 116,72 %ni, 2022 yilda 126,82 %ni, 2021 yilda 121,24 %ni tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda egri soliq tushumlarining o'sish sur'atlari 2024 yilda 11,13 %ga oshgan, 2023 yilda -10,10 %ga kamaygan, 2022 yilda 5,58 %ga, 2021 yilda 21,24 %ga ko'paygan. 1-rasm

3-jadval.

2020-2024 yillarda yig'ilgan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining egri soliq tushumlarining vertikal tahlili⁴

| Soliq turlari | 2020 yil | 2021 yil | 2022 yil | 2023 yil | 2024 yil |
|---------------|----------|----------|----------|----------|----------|
| BJD | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| BJSD | 84,92 | 83,95 | 79,14 | 79,63 | 78,91 |
| EGS | 34,92 | 34,18 | 35,37 | 35,96 | 31,78 |
| QQS | 23,45 | 23,34 | 25,85 | 24,98 | 21,34 |
| AKS | 8,80 | 7,95 | 6,67 | 6,83 | 6,80 |
| BBJ | 2,67 | 2,89 | 2,85 | 4,15 | 3,64 |

Qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarining o'sish sur'atlari 2024 yilda 123,60 %ni, 2023 yilda 110,91 %ni, 2022 yilda 135,77 %ni, 2021 yilda 123,29 %ni tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda qo'shilgan qiymat solig'i tushumining o'sish sur'atlari 2024 yilda 12,69 %ga oshgan, 2023 yilda -24,86 %ga kamaygan, 2022 yilda 12,48 %ga, 2021 yilda 23,29 %ga tezlashgan.



3-rasm. 2020-2024 yillarda yig'ilgan jami soliqli daromadlar hamda egri soliq tushumlarining O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti jami daromadlari tarkibidagi ulushlarining o'zgarishi⁵

Aksiz solig'i tushumlarining o'sish sur'atlari 2024 yilda 143,92 %ni, 2023 yilda 117,68 %ni, 2022 yilda 102,81 %ni, 2021 yilda 111,88 %ni tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda aksiz solig'i tushumining o'sish sur'atlari 2024 yilda 26,24 %ga, 2023 yilda 14,87 %ga oshgan, 2022 yilda -9,06 %ga kamaygan, 2021 yilda esa 11,88 %ga ko'paygan. 2-rasm


Bojxona boji tushumlarining o'sish sur'atlari 2024 yilda 126,97 %ni, 2023 yilda 167,19 %ni, 2022 yilda 120,58 %ni, 2021 yilda 134,09 %ni

tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda bojxona boji tushumining o'sish sur'atlari 2024 yilda -40,21 %ga pasaygan, 2023 yilda 46,60 %ga oshgan, 2022 yilda -13,50 %ga kamaygan, 2021 yilda esa 34,09 %ga ko'paygan.

Davlat byudjetining jami soliqli daromadlarining jami daromadlaridagi ulushi 2024 yilda 78,91 %ni, 2023 yilda 79,63 %ni, 2022 yilda 79,14 %ni, 2021 yilda 83,95 %ni, 2020 yilda 84,92 %ni tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda davlat byudjetining jami soliqli daromadlarining jami daromadlaridagi ulushi 2024 yilda -0,72 %ga kamaygan, 2023 yilda 0,49 %ga oshgan, 2022 yilda -4,82 %ga, 2021 yilda -0,97 %ga pasaygan. 3-jadval

Egri soliq tushumlarining davlat byudjeti jami daromadlaridagi ulushi 2024 yilda 78,91 %ni, 2023 yilda 79,63 %ni, 2022 yilda 79,14 %ni, 2021 yilda 83,95 %ni, 2020 yilda 84,92 %ni tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda egri soliq tushumlarining davlat byudjeti jami daromadlaridagi ulushi 2024 yilda -4,18 %ga kamaygan, 2023 yilda 0,59 %ga, 2022 yilda 1,18 %ga oshgan, 2021 yilda -0,74 %ga kamaygan. 3-rasm

Qo'shilgan qiymat solig'i tushumining davlat byudjeti jami daromadlaridagi ulushi 2024 yilda 21,34 %ni, 2023 yilda 24,98 %ni, 2022 yilda 25,85 %ni, 2021 yilda 23,34 %ni, 2020 yilda 23,45 %ni tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda qo'shilgan qiymat solig'i tushumining davlat byudjeti jami daromadlaridagi ulushi 2024 yilda -3,64 %ga, 2023 yilda -0,87 %ga kamaygan, 2022 yilda 2,51 %ga oshgan, 2021 yilda -0,11 %ga pasaygan.



4-rasm. 2020-2024 yillarda yig'ilgan qo'shilgan qiymat solig'i tushumi, aksiz solig'i tushumi hamda bojxona boji tushumlarining O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti jami daromadlari tarkibidagi ulushlarining o'zgarishi⁶

Aksiz solig'i tushumining davlat byudjeti jami daromadlaridagi ulushi 2024 yilda 6,80 %ni, 2023 yilda 6,83 %ni, 2022 yilda 6,67 %ni, 2021 yilda 7,95 %ni, 2020 yilda 8,80 %ni tashkil qilgan. Oldingi yilga qaraganda aksiz solig'i tushumining davlat byudjeti jami daromadlaridagi ulushi 2024 yilda -0,04 %ga pasaygan, 2023 yilda 0,17 %ga oshgan, 2022 yilda -1,28 %ga, 2021 yilda -0,85 %ga pasaygan. 4-rasm

Bojxona boji tushumining davlat byudjeti jami daromadlaridagi ulushi 2024 yilda 3,64 %ni, 2023 yilda 4,15 %ni, 2022 yilda 2,85 %ni, 2021 yilda 2,89 %ni, 2020 yilda 2,67 %ni tashkil qilgan.

Xulosa (Заключение, Conclusion).

Yuqorida amalga oshirilgan davlat byudjeti egri soliq tushumlari tahlili natijasiga ko'ra quyidagi **xulosalar** shakllantirildi:

1. Bilvosita soliqlar quyidagilar bilan tavsiflanadi: oxirgi iste'molchiga o'tkazish, soliq to'lovchining to'lov qobiliyatidan qat'iy nazar undirish, sotilgan tovarlar, ishlar va xizmatlar narxiga kiritish.
2. Bilvosita soliqqa tortish davlatning fiskal manfaatlariga ko'proq mos keladi, chunki u katta fiskal samaradorlikka ega, chunki bilvosita soliqlar iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishiga kamroq bog'liqdir.
3. Davlat bilvosita soliqlarni kamaytirish orqali tovar va xizmatlar iste'molchilarining daromadlari va xarajatlarining o'sishiga yordam beradi va talabni oshiradi yoki kamaytiradi.
4. Shuni ham ta'kidlash kerakki, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik past bo'lsa, soliq tushumlarining umumiy hajmida egri soliqlarning ulushi shunchalik ko'p bo'ladi.
5. 2024 yilda 2020 yilga qaraganda egri soliq tushumi +60,11 trln. so'mga, qo'shilgan qiymat solig'i tushumi +40,37 trln. so'mga, aksiz solig'i tushumi +11,09 trln. so'mga, bojxona boji 8,64 trln so'mga oshgan.
6. Egri soliq tushumlari, qo'shilgan qiymat solig'i tushumi, aksiz solig'i tushumi hamda bojxona boji tushumlarining bazis yoki zanjirli usulda aniqlangan mutloq miqdordardagi oshib borishiga asoslanib soliqlarni yig'iluvchanlik darajasiga xulosa berish yetarli bo'lmaydi.

³ Muallif tomonidan yaratilgan

⁴ Muallif tomonidan yaratilgan

⁵ Muallif tomonidan yaratilgan

⁶ Muallif tomonidan yaratilgan

7. Egri soliq tushumlari, qo'shilgan qiymat solig'i tushumi, aktsiz solig'i tushumi hamda bojxona boji tushumlarini sifatli tahlil qilish uchun gorizontal vertikal tahlil qilish maqsadga muvofiq.

8. Egri soliq tushumlari, qo'shilgan qiymat solig'i tushumi, aktsiz solig'i tushumi hamda bojxona boji tushumlarini davlat byudjetining jami daromadlari tarkibidagi ulushlari (vertikal tahlil natijasi) tahlil uchun tanlangan davrda keskin o'zgarmagan.

Yuqoridagi xulosalarga asosan quyidagi **takliflar** ishlab chiqildi:

- solq tizimida soliqlarni yig'iluvchanlik darajasini oshirish orqali egri soliq tushumlari, qo'shilgan qiymat solig'i tushumi, aktsiz solig'i tushumi hamda bojxona boji tushumlarining barqarorligini ta'minlash;

- solq tizimida soliq salohiyatini doimiy oshirib borish hamda qo'shimcha daromad manbalarini izlab topish orqali egri soliq tushumlarining mutloq miqdorini barqaror o'sishini ta'minlash.

- solq tizimida soliq qarzdorligini qisqartirish yuzasidan tasirchan choralar ishlab chiqish hamda amalga joriy qilish orqali egri soliq tushumlarini oshirish; egri soliq tushumlarini tahlil qilish uslubiyatini xorij mamlakatlarning ilg'or amaliyotidan kelib chiqib, doimiy takomillashtirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Коровкин В.В. Основы теории налогообложения. М.: Экономика, 2006. 576 с.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, -T.:2022-y. -152 b.
3. Янжул И.И. Основные начала финансовой науки: учение о государственных доходах. М.: Статут, 2002. 555 с.
4. Майбуров И.А., Соколовская А.М. Теория налогообложения. Продвинутый курс. М.: Юнити-Дана, 2011. 591 с.
5. Кудряшова Е.В. Правовые аспекты косвенного налогообложения: теория и практика. М.: Волтерс Клувер, 2006. 304 с.
6. Витте С.Ю. Конспект лекций о народном и государственном хозяйстве, читанных его императорскому величеству великому князю Михаилу Александровичу в 1900-1902 годах. М.: Юрайт, 2011. 629 с.
7. Ивлиева М.Ф. Правовые проблемы косвенного налогообложения в Российской Федерации // Правоведение. 2007. № 11(244). С. 107-119.
8. Musgrave P., Musgrave R. Public finance in theory and practice. Tata McGraw-Hill, 1989.
9. Иванов Ю.Б. Податкові аспекти конкурентоспроможності. Науководослідний центр індустріальних проблем розвитку НАН України. Харківський національний економічний університет. "Конкурентоспроможність: проблеми науки і практики". — Х.: ІД "ИНЖЭК" — 2006. — С.189—206.
10. Зотиков Н.З., Львова М.В. Прямые и косвенные налоги, их роль в формировании доходов бюджетов различных уровней // OeconomiaetJus. — 2018. — № 4. — С. 715.
11. Долинин Н.Е., Хаметова А.Р. Акцизы: проблемы и перспективы // Научный электронный журнал «Матрица научного познания». — 2017. — №11. — С. 44-48.
12. Широкова Н. Е. Некоторые аспекты акцизного налогообложения в Российской Федерации // Актуальные проблемы российского права. 2009. №4. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-aspekty-aktsiznogo-nalogooblozheniya-vrossiyskoy-federatsii>.